

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

“KELISHILGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi huzuridagi
X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza
markazi direktori



A.Xalilov

2025-yil 30-aprel

“TASDIQLAYMAN”

Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini
oshirish instituti direktori



V. Kanyazov

2025-yil 30-aprel

**“O‘ZBEKISTONDA DEMOKRATIK ISLOHOTLARNI YANADA
CHUQURLASHTIRISH VA FUQAROLIK JAMIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA HUQUQIY ASOSLARI”**

fani bo‘yicha dual ta’lim shakli asosidagi qayta tayyorlash kursining

O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2025

I. O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA OLIY KASBIY TA'LIMDAGI O'RNI

“O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari” fani bo‘yicha qayta tayyorlash kursining **O‘quv dasturi** (bundan keyin matnda O‘quv dasturi deb ataladi) – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymanova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarini malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida»gi 206-sonli, 2025-yil 19-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 171-son qarorlariga, 2020-yil 24-martdagi “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 180-son qarori bilan tasdiqlangan “Nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari sud ekspertlari (bundan keyin matnda Sud ekspertlari deb yuritiladi)ni qayta tayyorlash, malakasi va huquqiy bilimini oshirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, sud ekspertlarini qayta tayyorlashga qo‘yiladigan talablar asosida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi tarkibida sud ekspertlarining qayta tayyorlashning dolzarbligi va oliy kasbiy ta’lim dasturidagi o‘rni, maqsadi, vazifalari va o‘rganadigan muammolari, sud ekspertlarining qayta tayyorlashga jalb qilingan mutaxassislar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tasnifi, nazariy, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari hajmi va mazmuni, metodik tavsiyalar, mavzuviy rejalar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro‘yxatini qamrab olgan.

II. O'QUV FANINING MAQSADI VA VAZIFASI

“O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari” fanini o‘qitishdan **maqsad** – tinglovchilarga O‘zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari, ijtimoiy munosabatlar va huquq, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, huquq normalari, bo‘yicha asosiy bilimlarni o‘rgatishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan tinglovchilarning nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalalar, hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

O‘quv fanining asosiy vazifalari:

- tinglovchilarga O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslarini o'rgatish.

Nodavlat sud ekspertlarini qayta tayyorlashga quyiladigan talablar

- Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy prinsiplar va qoidalarni bilish, qonun hujjatlari normalarini to'g'ri anglash va qo'llash qobiliyati;
- sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirish qobiliyati;
- ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyati;
- turli vaziyatlarga nisbatan ruhiy barqarorlik.

MAVZULAR REJASI

T/r	Mashg'ulotlarning mavzusi	Jami o'quv soatlari	Shu jumladan,		
			Ma'ruza	Seminar	Amaliy (laboratoriya)
1.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari hamda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning xususiyatlari	4	2	2	-
2.	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uning mazmun-mohiyati	6	4	2	-
3.	O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati va amalda qo'llash masalalari	4	2	2	-
4.	O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunining mazmuni va amalda qo'llanilishi.	4	2	2	-
Yakuniy nazorat		2			
Jami		20	10	8	

III. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari hamda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarning xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari va sud ekspertlik faoliyatidagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson

huquq va erkinliklari, aybsizlik prezumpsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga so'nggi yillarda kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar.

2-mavzu: 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uning mazmun-mohiyati

Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvardavlat barpo etish yo'nalishlari. Mamalakatimizda adolat va qonun ustuvorligi ta'moyillarini taraqqiyotining eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo'nalishlari. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishlari. Adolat ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishlari. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish hamda umumbashariy muammolarga yondashish yo'nalishlari. Mamlaakatimiz havfsizligi va mudofaa salohiyatinikuchaytirish, ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish yo'nalishlari.

3-mavzu: O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati va amalda qo'llash masalalari

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari va o'zaro nisbati. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash. Normativ-huquqiy hujjatlarga qo'yiladigan asosiy talablar. Normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish, ularning kuchga kirishi va amal qilishi. Normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish va ta'minlash. Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash va davlat hisobiga olish.

4-mavzu: O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunining mazmuni va amalda qo'llanilishi.

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunning ahamiyati, zaruriyati, tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tushunchasi va turlari. Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonalari faoliyati. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat etish huquqlari kafolatlari. Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rov instituti va uning jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan farqi. Murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, davlat organlarining, tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari.

IV. SEMINAR MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg'ulotlarida tinglovchilar o'z bilimlarini chuqurlashtirib, ular bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ifoda eta olish ko'nikmalari, ijodiy fikrlash

qobiliyatlarini rivojlantirib boradilar. Buning uchun o'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida muammoli, bahsli vaziyatlarni yaratishi lozim bo'ladi.

O'qituvchi berilgan savolga javob berish jarayonida tinglovchi tomonidan hayotiy misollar keltirish, ularni hozirgi zamon voqea-hodisalari bilan bog'lab borish katta ahamiyatga ega. Mashg'ulotlar davomida jahonda sodir bo'lgan voqea-hodisalar bo'yicha tinglovchilarda mustaqil savollar, testlar tuza olish hamda qo'yilgan savollarga to'g'ri, aniq javob berish ko'nikmalarini rivojlantirib borish tavsiya etiladi.

V. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

O'quv kursi bo'yicha o'quv materiallarining kengroq egallash va tinglovchilar dunyoqarashini boyitish maqsadida o'qituvchilar tomonidan tinglovchilarga mustaqil ta'lim uchun mavzular va adabiyotlar tavsiya etiladi. Tinglovchilar mustaqil ta'limda fanning hususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;

– maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

VI. O'QUV VA ISHLAB CHIQRISH AMALIYOTLARI

(O'quv rejasida bu fan uchun ko'zda tutilmagan)

VII. LABORATORIYA VA KURS ISHLARI

(O'quv rejasida bu fan uchun ko'zda tutilmagan)

VII. O'QUV DASTURINI O'ZLASHTIRISH VA TA'LIM JARAYONLARINI TA'MINLASHGA MO'LLJALLANGAN O'QUV VA METODIK MATERIALLAR

O'quv jarayonini tashkil etish:

O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shuningdek, masofaviy ta'lim hamda o'quv mashg'ulotlarining interfaol "aqliy hujumlar", "keys stadi", "jamoalar bo'lib ishlash" hamda bilim va ko'nikmalar berishning boshqa zamonaviy shakllari joriy etiladi.

O'quv materiallari:

ma'ruza fondlari (shu jumladan, elektron shakldagi) va fan bo'yicha o'quv qo'lanma, tarqatma materiallar;

multimedia materiallari (slaydlar, prezentatsiyalar va h.z.).

O'quv-metodik materiallar:

test (yoki nazorat savollari) yohud masofaviy topshiriqlar;
amaliy topshiriqlar (masalalar yoki kazus va h.z.).

O'quv dasturini amalga oshirish uchun zarur texnik ta'minoti:
shaxsiy kompyuter – o'qituvchining avtomatlashtirilgan ish joyi;
multimedia qurilmasi, ekran smart-televizor.

VIII. YAKUNIY NAZORAT

O'quv dasturining barcha mavzulari bo'yicha yakuniy nazorat test shaklida o'tkaziladi va baholanadi.

IX. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ASARLARI:

Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.

Shavkat Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

Shavkat Mirziyoev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoev. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2019. – 400 b.

Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2020. – 452 b.

Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

NORMATIV-HUQUQIY XUJJATLAR VA BOSHQA ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni. (yangi tahriri).

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni.

Azizxujaev A.A. va boshq. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O'zbekiston, 2008.

Qayumov R.Q. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. – T.: Adolat, 1998.

Fayziev M. O'zbekiston Konstitutsiyasining mohiyati (o'quv qo'llanma). – T.: Adolat, 1998.

O'razayev S.Z. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1995.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. (O'quv kursi bo'yicha ma'ruza matni). – Toshkent, 2002.

Boboyev X. va mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. – Toshkent, 2001.

Rustamboyev M., Ahmedov D. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. – Toshkent, 2005.

INTERNET SAYTLAR VA DAVRIY NASHRLAR:

1. www.bilim.uz.
2. [http:// lex.uz](http://lex.uz) (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);
3. [http:// www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) (Axborot ta'lim tarmog'i).